

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

Jild 3, Son 5/8

2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 5/8 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

Тахририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Намазова Умида Нормуродовна</i> ФРАГМЕНТЫ ИЗ ИСТОРИИ САМАРКАНДСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ, ЖИВОТНОВОДСТВА И BIOTEХНОЛОГИЙ (1929-1945 ГОДЫ).....	10-15
<i>Эрназаров Туйгун Раджабович</i> ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ТАМОЖЕННОЙ СЛУЖБЫ ТУРКЕСТАНСКОГО ГЕНЕРАЛ- ГУБЕРНАТОРСТВА: КЛЮЧЕВЫЕ МОМЕНТЫ И ДОСТИЖЕНИЯ	16-21
<i>Хужаниязов Уктам Ешбаевич</i> “ҚОРАҚАЛПОҚФИЛЬМ” СТУДИЯСИ ХУЖЖАТЛИ ФИЛЬМЛАРИДА ТАРИХИЙ МАВЗУЛАР ТАЛҚИНИ	22-27
<i>Шаимкулов Азамат Холмуратович</i> ҚАЙТА ҚУРИШ ДАВРИ МАТБУОТИДА ИҚТИСОДИЙ МАСАЛАЛАР ТАЛҚИНИ	28-38
<i>Муродов Ҳалим Салимович</i> ТУРИЗМ РИВОЖИ ТАРИХИГА БИР НАЗАР	39-46
<i>Юлдашев Саиданварбек Бахромжон ўғли</i> ФАРҒОНА ВОДИЙСИНИНГ– ҚОРАХОНИЙЛАР ТОМОНИДАН ЗАБТ ЭТИЛИШИ ТАРИХИДАН	47-51
<i>Shonazarova Nargiza</i> TOSHKENT SHAHRIDA “OBOD MAHALLA” DASTURI VA UNING IJROSI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR	52-57
<i>Axmadova Nafisa Axmad qizi</i> O‘ZBEKISTON VA FRANSIYA MADANIY ALOQALARINING RIVOJLANISHI	58-64
<i>Qodirova Ra’no Mamirjonovna</i> O‘ZBEKISTON SSR MAKTABLARIDA 1930-YILLARNING IKKINCHI YARIMIDA TARIX FANINING O‘QITILISHI	65-70
<i>Yunusxo’jayev Habibulla Zafar g’o’li</i> SHARQDA KUCHLI IJTIMOIIY NIHOYA TIZIMI TARIXI	71-75
<i>Нарбеков Абдикамил</i> НАЦИОНАЛЬНАЯ ПОЛИТИКА СОВЕТСКОГО ГОСУДАРСТВА В ТУРКЕСТАНЕ И ЕГО СУЩНОСТЬ	76-80
<i>Alimova G‘unchaxon Baxadirovna</i> JAMIYAT TARAQQIYOTINING TARIXIY RIVOJLANISH ASOSLARI DIN VA DAVLAT MISOLIDA	81-85
<i>Jumanazarova Fotima</i> XOTIN QIZLAR BANDLIGINI TA'MINLASH TIZIMINING SHAKLLANISH JARAYONI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI	68-93
08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ	
<i>Ziyodilloev Khushnud Rahimboevich</i> PORTFOLIO OPTIMIZATION OF COMMERCIAL BANK CREDITS: A LITERATURE REVIEW	94-100

<i>Hamrayev Amirzoda</i> ISLOMIY MOLIYA XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI TASHKIOTLAR KAPITAL STRUKTURASI SAMARADORLIGI TAHLILI.....	101-109
<i>Xaitbobaeva Nigora Bakmatatovna</i> T'UQIMACHILIK SANOAT KORXONALARIDA MARKETING STRATEGIYASIDAN FOYDALANIISH B'YIYCHA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARI.....	110-119
<i>Xalilov Qahramon Qurbonboyevich</i> MINTAQADA TURIZM HUNARMANDCHILIK KLASTERNI SHAKLLANTIRISHNING DESTINATSION MODELI.....	120-132
<i>Maxmudov Tursunpulat Davronovich</i> INVESTITSIYA MANBALARINING MINTAQAGA IKTISODIYETIGA TA'BSIRI	133-144
<i>Ishchanova Salomat</i> KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA MARKETING FAOLIYATINING O'RNI.....	145-150
<i>Muydinova Zilola Voxid qizi</i> CHEGARA BOJXONA POSTLARI FAOLIYATIDA "AVTOMATLASHTIIRILGAN IY'LOVCHI XARAKATI" MOBIL ILOVASINI JORIY ETISH ORQALI IKTISODIY TAHLILNI TAKOMILLASHTIIRISH.....	151-158
<i>Samandarov O'gabek, Ismoilov Shohjahon</i> TURIZMNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI VA ULARNING O'ZIGA XOS JIHATLARI	159-164
09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ	
<i>Saidova Kamola Uskanbaevna</i> ФЕНОМЕН СВОБОДЫ ДЛЯ ЧЕЛОВЕКА И ОБЩЕСТВА: КОМПАРАТИВИСТСКИЙ АНАЛИЗ	165-173
<i>Omonturdiyev Orzu G'afforovich</i> INSONNING MA'NAVIY MOHIYATINI SHAKLLANTIRISHDA QADRIYATLARNING AHAMIYATI	174-179
<i>Ochilova Guzal' Aralovna</i> YUKSAK MA'NAVIYAT-MANFAATLAR BIRLIGINI TA'MINLASHNING MUQIM OMILI.....	180-185
<i>Nurmatova Umida Jalolidinovna</i> MUTOLAA, SAVODXONLIK VA TA'LIMNING ANTINOMIK XUSUSIYATLARI.....	186-192
<i>Vafayeva Dilafruz Artikovna</i> AHMAD YASSAVIY TASAVVUFIIY TA'LIMOTIDA MA'NAVIY BARKAMOLLIK.....	193-198
<i>Karimov Zafarbek Ataboyevich</i> IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MEKANIZMLARINING SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI.....	199-202
<i>Bozorova Ro'zigul Sharofovna</i> MEHRSIZLIK HODISASINI KELITIRIB CHIQRUVCHI OMILLAR	203-212
<i>Xudoyberdieva Anorabonu Hayotovna</i> DINIY MANBALARDA IJTIMOIIY HAMKORLIK O'OYALARI	213-218
<i>Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna</i> TASAVVUF FALSAFASIDA GO'ZALLIKNING IMMANENT JIHATLARI	219-224

<i>Dehqonov Behzod Baxtityorovich</i> YANGI O'ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QURISHDA YETTI PIRNING BAG'RIKENGLIK G'OYALARINI O'RNI VA AHAMIYATI	225-230
<i>Abdullayeva Firuza Sharipovna</i> NASIRIDDIN TUSIYNING IDROK NAZARIYASI VA KOMILLIK FALSAFASI	231-236
<i>Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich</i> SHIHOBUDDIN UMAR SUXRAVARDIYNING "AVORIF UL -MAORIF" ASARI VA UNDA ILGARI SURILGAN G'OYALAR	237-243
<i>Ибрагимов Солижон Эргашович</i> АХБОРОТ ХУРУЖИ ВА "ОММАВИЙ МАДАНИЯТ" ТАҲДИДИ.....	244-251
10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ	
<i>Qodirova Mukaddas Tog'ayena</i> BIZNES DISKURSINING MURAKKAB LINGVISTIK TABIATI.....	252-257
<i>Abdullayev Ikramjon Xashimdjanoich</i> DIFFERENT APPROACHES TO THE QUANTITATIVE-STATISTICAL CHARACTERISTICS OF PARTS OF SPEECH IN THE ENGLISH LANGUAGE	258-265
<i>Hamroyeva Sharifa Shukur qizi</i> TARJIMADA MILLIY SO'ZLARNING BERILISHI (OYBEKNING "NAVOIY" ROMANI INGLIZCHA TARJIMASI MISOLIDA)	266-271
<i>Olimova Gulfiza Muradullayevna</i> BADIIY SAN'AT TURLARINING XORAZM DOSTONLARIDA QO'LLANILISHI.....	272-281
<i>Айниддинов Иқрориддин Шарифович</i> АДАБИЙ МАНБАЛАРДА АШРАФ САМАРҚАНДИЙНИНГ ТАРЖИМАИ ҲОЛИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ	282-287
<i>Turaeva Dilfuza Daminovna</i> O'ZBEK TILIDA OBRAZLI SO'ZLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI	288-295
<i>Mahmudova Nilufarxon Ravshanovna</i> LISONIY GRADASIYANING MORFOLOGIK, LEKSIK-SEMANTIK SATHDA PARADIGMA SIFATIDA NAMOYON BO'LISHI	296-305
<i>Ashurova Maftuna Asqar qizi, Yuldoshev Rustam Dilshod ugli</i> LINGUOCULTURAL COMPARATIVE ANALYSIS OF IDIOMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES	306-311
<i>Isroilova Manzura Jamolovna</i> FRANSUZ PUBLITSISTIK MATNLARDA KOMPARATIV FRAZELOGIK BIRLIKLARNING KOMMUNIKATIV TA'SIRI XUSUSIDA	312-317
<i>Шамақсудова Саодат Хидоятовна</i> МАССМЕДИА АСПЕКТНИНГ МЕДИАМАТН ШАКЛИГА КЕЛИШИДАГИ ЎЗИГА ХОСЛИКЛАР.....	318-324
<i>Шатова Ирина Юрьевна</i> ОСОБЕННОСТИ УПОТРЕБЛЕНИЯ ЛЕКСИКИ ПО РОДУ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЛИЦ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ	325-330
<i>Nortoyeva Nodira Muhammadaliyevna</i> FRAZELOGIK DERIVATLARNI KONTEKSTLARDA ISHLATILISHINING KOGNITIV ASOSLARI	331-335

<i>Alimjanova Shohsanam Azamat qizi</i> KO'P MA'NOLI IBORALARNING KOGNITIV XUSUSIYATLARI	336-340
<i>Турниязова Шахноза Нигматовна</i> МАТНДАГИ БОҒЛАНИШЛИЛИК ҲАҚИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР	341-347
<i>Mamarasulova Iroda Jumanovna, Xojimetov Sa'dulla Jumanazarovich</i> INGLIZ ADABIYOTI TUSHUNCHALARINING XILMA -XILLIGI	348-352
<i>Aminova Dilnoza Hikmatullayevna</i> THE IMPORTANCE OF INTERCULTURAL COMMUNICATION IN THE ORIGIN OF MILITARY TERMINOLOGY	353-358
12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР	
<i>Исломқулова Шоҳсанам Ваҳобжон қизи</i> ВРАЧНИНГ КАСБИЙ ЖАВОБГАРЛИГИНИ СУҒУРТА ҚИЛИШ ТУШУНЧАСИ ВА МОҲИЯТИ	359-365
<i>Mamatallyev To'liqin Xushmamat o'g'li</i> O'ZBEKISTONDA MASOFAVIY TA'LIM HUQUQIY ASOSLARINING SHAKLLANISHI	366-378
13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ	
<i>Saidov Jur'at Sodirovich</i> МАКТАВГАСНА ТА'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARGA TARBIYA BERISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	379-384
<i>Yusupaliyeva Shaxnoza Hakimjanovna,</i> ТЕХНИК ОЛИЙ О'QUV YURTLARIDA OO'ZAKI NUTQ KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH USUL VA METODLARI	385-390
<i>Tadjixodjaeva Эльвира Рашидовна</i> ОСОБЕННОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ МЕТОДОВ ИГРОПЕДАГОГИКИ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ	391-396
<i>Тўрахонова Барно Турсунбой қизи</i> БЎЛАЖАК ПЕДАГОГ-ПСИХОЛОГЛАРНИ ТАРБИЯВИЙ ФАОЛИЯТНИ ТАШКИЛ ЭТИШГА ТАЙЁРЛАШНИНГ ДИДАКТИК ИМКОНИЯТЛАРИ	397-406
<i>Ashurova Sitora Erkinovna</i> USING DIGITAL TECHNOLOGIES IN EDUCATION	407-412
<i>Каримжоновна Мунаввар Ибрагимовна</i> ХИЗМАТ ИТЛАРИНИ МАХСУС ЙЎНАЛИШГА ТАЙЁРЛАШДА УНГА ТАЪСИР ҚИЛУВЧИ ОМИЛЛАР ТАҲЛИЛИ (Божхона қўмитасининг Миллий кинология маркази мисолида).....	413-421
<i>Xamirayev Rustam Abdirazakovich</i> VOLEYBOLCHILARDA HARAKAT SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING USLUBIY ASOSLARINI ТАКОМИЛЛАСHTIRISH	422-426
<i>Хашимова Масуда Камилжановна</i> КОМПЛЕКСНЫЙ ПОДХОД К ПРОЦЕССУ НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАЦИИ НАУК	427-435
<i>Бердикулова Насиба Эркинжоновна</i> СОДЕРЖАНИЕ ПРИМЕНЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ И ИНТЕГРАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ	436-442

Saidnazarova Gulshan Bolta qizi

AL-BUXORIYNING MA'NAVIY-AXLOQIY QARASHLARINI O'RGANISH PEDAGOGIK MUAMMO

SIFATIDA443-448

09.00.00 – Иқтисодиёт фанлари

Samandarov O'gabek
Urganch davlat universiteti o'qituvchisi

Ismoilov Shohjahon
Urganch davlat universiteti

TURIZMNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI VA ULARNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada turizmni rivojlantirish omillari, ularning mohiyati va mazmuni ochib berilgan hamda ularning turizm sohasidagi o'rni, imkoniyatlari, olib boradigan vazifalari, ahamiyati o'ziga xos jihatlari yoritilgan hamda taklif va tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Turizm, iqtisodiy-geografik omil, iqtisodiy omil, siyosiy omil, ijtimoiy-demografik omil, xalqaro turizm.

Samandarov Ogabek
Teacher, Urganch State University,

Ismailov Shahjahan
Urganch State University

FACTORS OF TOURISM DEVELOPMENT AND THEIR SPECIFIC ASPECTS

Abstract. In this article, the factors of tourism development, their essence and content are revealed, and their role, opportunities, functions, importance in the field of tourism are highlighted, and proposals and recommendations are presented.

Key words: Tourism, economic-geographic factor, economic factor, political factor, socio-demographic factor, international tourism.

Самандаров Огабек
Преподаватель Ургенчского
государственного университета

Исмаилов Шахджахан
Ургенчский государственный университет

ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА И ИХ ОСОБЕННОСТИ

Аннотация. В данной статье раскрывается природа факторов развития туризма и освещаются их специфические аспекты.

Ключевые слова: В данной статье раскрыты факторы развития туризма, их сущность и содержание, выделены их роль, возможности, функции, значение в сфере туризма, а также представлены предложения и рекомендации.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3SI8Y2023N21>

Kirish

XX asr boshlarida turizm dunyoning ko'plab davlatlari va mintaqalarida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotning yetakchi yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bugungi kunda turizm iqtisodiyotning eng jadal rivojlanayotgan va yuqori rentabelli tarmoqlaridan biri bo'lib, u iqtisodiyotning turli tarmoqlarining birgalikdagi faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, so'nggi yillarda mamlakatimizda turizm sohasi iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan biriga aylanib bormoqda. Ushbu sohani rivojlantirish uchun qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi PF-60-son Farmoni doirasida mamlakatimiz taraqqiyotini belgilovchi 100 ta maqsad ishlab chiqilgan. Undagi 35-maqsadga ko'ra, "O'zbekiston bo'ylab sayohat qilish" dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 mln. nafardan oshirish hamda respublikamizga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 mln. nafarga yetkazish vazifalari qo'yilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda mamlakatimiz turizm salohiyatidan samarali foydalanish maqsadga muvofiq [1].

So'nggi yillardagi har xil siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarga qaramay, mamlakatimizdagi turizm sanoati yildan-yilga barqaror ravishda tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishni ko'paytirib borayotgan xalq xo'jaligi tarmog'i bo'lib qolmoqda. Bunday tendensiyani BTT metodikasi bo'yicha bajarilgan hisob-kitoblar ham tasdiqlaydi. Bunday hisob-kitoblar taqdim etilgan turistik xizmatlarning ko'p yillik hisobot ma'lumotlari asosida amalga oshirilgan. Tahlil natijalari mutaxassislariga turistik xizmatlarning hajmi, demakki ulardan olinadigan daromadlar hajmi kelgusida ortadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Turizmning o'sishi birinchi navbatda ishlab chiqarish kuchlari rivojlanganligi, mamlakatlar, mintaqalar o'rtasida iqtisodiy aloqalar hamda sport faoliyati rivoji, xalqlarning muloqotga intilishi va boshqalar mamlakatlar tajribalaridan foydalanishda aks etadi. Raqamli davrda turizm iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga xizmat qilish uchun ma'lumotlar elementlarini qanday qilib yaxshiroq targ'ib qilish va turizm ta'minoti tomonini chuqurroq isloh qilishni rag'batlantirish juda muhim masala bo'lib hisoblanadi [3].

Fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari, xususan transport sohasidagi yutuqlar transport tashuvi hajmining oshishi, aviareyslar soni oshishi va ko'plab shaxsiy avtomobillar yig'ilishiga olib keldi. Zamondoshlar ommaviy turizm gurkirab rivojlanayotganligiga guvoh bo'lmoqda. Turizm ish o'rinlarini yaratadigan, korxonalarining moliyaviy aktivlarini oshiradigan va mahalliy va global miqyosda sog'lom muhitni qo'llab-quvvatlovchi ko'p milliard dollarga teng global sanoatdir [4].

Shuningdek, turizm tushunchasi o'z rivojlanish bosqichlarida turlicha ta'rif va xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi qonunida turizmga quyidagicha ta'rif berilgan: Turizm - jismoniy shaxsning vaqtincha bo'lish mamlakatidagi (joyidagi) manbalardan daromad olish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda doimiy yashash joyidan jo'nab ketishi (sayohat qilishi)dir[2].

Turizmga berilgan ta'riflarga to'xtaladigan bo'lsak, rus olimi M.Romanova o'z ilmiy ishlarida turizmni tadbirkorlik faoliyatining o'ziga xos sohasi bo'lib, u o'zaro iqtisodiy munosabatlarning yaxlit tabiati bilan ajralib turadi, deb ta'kidlagan [5].

Rossiyalik olim I.N.Dishlovoy o'z ilmiy ishlarida turizmga ta'sir qiluvchi omillar va ichki turizmni rivojlantirish masalalari bo'yicha ish olib borgan. U o'z ilmiy ishida Rossiya turizmiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik, demografik va boshqa bir qancha omillar va xorij mamlakatlari tajribalarini o'rganib chiqqan [6].

S.Makarenko turizm tarixi nomli ilmiy-tadqiqot ishida turizmni rivojlanishida transport xizmatlarining ahamiyatini qanchalik muhimligi va uni asosiy omillardan biri sifatida hisoblanishi to'g'risida ma'lumotlarni keltirib o'tgan. Bundan tashqari, u bir qancha ichki va tashqi omillarni ham ko'rsatib o'tgan [7].

A.M.Kolesnikov o'zining turizm xizmatlar bozorining rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar nomli ilmiy ishida turizmning rivojlanishida iqtisodiy omillarni o'rganib, ulardan talab va taklif omillarini alohida va kengroq yoritib bergan [8].

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot ishida tahlil, sintez, statistik, guruhlash va taqqoslama tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari. Hozirgi kunda turizmning rivojlanishiga ijtimoiy-iqtisodiy-madaniy omillar asosiy sabab omillar bo'lib xizmat qiladi. Bu borada dunyo mamlakatlari xalqaro turizmning rivojlanishida turistik korxonalarining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini oshirishga juda katta e'tibor berilmoqda. Dunyodagi to'rtta ustuvor sohalardan biriga aylangan turizm sohasiga aholining keng qatlamini faol hissa qo'shishlarini, ya'ni ularni turli turistik xizmatlarni tashkil qilishda keng miqyosda ishtirok etishlari va buning natijasida mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan manfaatdorliklarini oshirishlarini ta'minlashda xususiy turistik korxonalar va tashkilotlar faoliyati alohida o'rin egallaydi [9].

Shulardan kelib chiqib, turizmni rivojlantirishda quyidagi omillar muhim o'rinni egallaydi:

- *iqtisodiy-geografik omillar*. Iqtisodiy-geografik omillarga turizmning moddiy-texnika bazasi, ya'ni mehmonxonalar fondi, umumiy ovqatlanish korxonalari (restoran tarmoqlari), sport inshootlari, tomosha va sayr qilish, dam olish, servis xizmati ko'rsatish obyektlari, ichki va tashqi kommunikatsiya tarmoqlari avtomobil, temir yo'l, havo yo'li, dengiz va daryo transporti, aloqa vositalari, internet tarmog'i kiradi. Hamda yangi temir yo'llar, avtomobil trassalari, dengiz, daryo, havo transporti, zamonaviy turistik avtobuslar, yengil avtomobillar, shu jumladan yotib uxlaydigan qulay avtomobil tirkagichlar, mototsikllar, motorollerlar, yangi dengiz daryo passajir kemalari, teploxodlar, tez uchar reaktiv havo laynerlari xalqaro turizmni rivojlantirishda imkoniyatlar yaratadi. Mintaqa va hudud miqyosida xalqaro turizmning rivojiga ta'sir etuvchi iqtisodiy-geografik omillarga quyidagilar kiradi [10]:

- turistlarni qabul qiluvchi mamlakatlar, mintaqalar va hududlarning iqtisodiy-geografik joylashuvi;

- turistlarni qabul qiluvchi va turistlarni yuboruvchi mamlakatlarning iqtisodiy jihatdan rivojlanish darajasi;

- ichki turizm sohasining rivojlanish holati;

- xorijiy turistlarni qabul qiluvchi mamlakatlarning mehnat resurslari bilan ta'minlanish darajasi, malakali kadrlar soni, ularning tayyorgarlik darajasi;

- hududda rekreatsion resurslar qiymati, transport xizmatlari turi, oziq-ovqat mahsulotlari narxi, mehmonxonalarga joylashish narxlari va turistik obyektlar qurilish maydonlarining bahosi.

- *iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va demografik omillar.* Turizm rivojlanishiga makroiqtisodiy omillar bilan birga mikroiqtisodiy omillar ham ta'sir ko'rsatadi. Makroiqtisodiy barqarorlik, ishsizlik darajasining o'sishi va pulni qadrsizlanishi kabi omillar salbiy ahamiyat kasb etadi. Ayrim hollarda kishilar o'z uyida qolib, hech qayerga sayohatga bormasdan o'tirishga to'g'ri keladi. Shuningdek, biron-bir mamlakat iqtisodiyotining yuksalishi ishlab chiqarish imkoniyatlari, ya'ni valyuta miqdorining ortib borishi bilan belgilanadi. Mamlakatda turizmdan keladigan foyda YalMda salmog'i yuqori bo'lsagina investitsiyalar, ya'ni mehmonxonalar qurish va infratuzilmani rivojlantirishga sarf qilinadi. Milliy daromadni o'sishi, ayniqsa aholi shaxsiy ehtiyoji qobiliyatini qondirishga qaratilgan xarajatlarning o'sishi darajasi ularning sayyohlikka bo'lgan qiziqishini uyg'otadi. Kishilarning dam olishida turistik tovarlar bahosi muhim omil bo'lib hisoblanadi.

- *savdo aloqalari.* Xorijiy mamlakatlarda sayohatga boradigan turistlarni o'sha yerda mahsulotlarni xarid qilish qiziqtiradi. Bu noyob, mahalliy hunarmandchilik mahsulotlari, suvenir mahsulotlar bo'lib, qarindosh-urug'lari va oila a'zolari uchun xarid qiladilar. Turizm sohasi orqali rivojlangan mamlakatlarda xorijiy davlatlardan keladigan sayyohlarning talab va ehtiyojlarini hisobga olgan holda sanoat eksporti rivojlantiriladi. Hozirgi kunda Birlashgan Arab Amirligi, Gretsiya, Italiya, Singapur, Hindiston, Xitoy va Janubiy Koreya kabi mamlakatlar xorijiy turistlarga uzoq muddatli foydalaniladigan tovarlar: kiyim-kechaklar, ro'zg'or buyumlari, elektronika, radio, telefon, televizor va videotexnika asboblarni sotishga kirishganlar.

- *siyosiy omillar.* Siyosiy omillar turistlarni qabul qilib oluvchi va turistlarni jo'natuvchi mamlakatlarda turistik marshrutlar yo'nalishidagi hududlar va mintaqalarda siyosiy vaziyatning holatiga bog'liq bo'ladi. Mamlakatdagi ichki vaziyatning turg'unligi xalqaro turizm oqimining yo'nalishini belgilaydi. Davlatlararo turistlarni almashtirishda mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro kelishuvchilik munosabatlari muhim ahamiyatga ega. Odatdagi diplomatik aloqalar, turizm sohasidagi kelishuvlar, transport-kommunikatsiya vositalaridan hamkorlikda foydalanish va turistik reklamalarni bir-birlari bilan almashtirish kabilar turizmning rivojiga o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

- *ijtimoiy-demografik omillar.* Dunyo mamlakatlarida demografik jarayonlar xalqaro turizm sohasining rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ularga aholining tug'ilishi, o'limi, tabiiy ko'payishi va aholi migratsiyasi kabilar kiradi. Yer shari davlatlari, hududlar va mintaqalarda aholi sonining ko'payishi, ya'ni shahar aholisi aglomeratsiya doirasining borgan sari kengayishi kishilarning dam olishi va sayyohlikka chiqishni taqozo qiladi. Bu borada turizmning rivojlanishiga ta'sir etuvchi demografik omillar quyidagicha tasniflanadi [11]:

- dunyo xalqlaridagi bir-biriga o'xshashlik tomonlar va ularning qiziqishlari;
- ayrim malakaviy sohalaridagi kishilarning maxsus sayyohlik guruhda faol ishtirok etishning kuchayib borishi;
- turizm tarkibidagi xotin-qizlar va yoshlar salmog'ining ortib borishi;

- xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan sanatoriy-kurort tarmog'ining ko'payib borishi hamda ularda davolanishga moyil bo'lgan kasallar sonining ortishi;
- kishilarning atrof-muhitga bo'lgan qarashlari, tushunchalari va munosabatlarning o'zgarishi.

Shuningdek, xalqaro turizmning rivojlanishida madaniy-tarixiy obidalar, etnik shart-sharoitlar bilan qo'shilib ketadi. Arxitektura obyektlari, muzeylar, rasmlar galereyasi, mahalliy musavvirlar ishlari va tarixiy yodgorlik obidalari ham xorijiy turistlarni o'ziga jalb qiladilar. Bu orqali xalqaro turizmning rivojlanishida etnik shart-sharoitlar ham alohida ahamiyatga ega. Dunyo aholisi irqi, millati, tili, dini, turmush tarzi, madaniyatining xilma-xilligi bilan ko'pgina turistlarda qiziqish uyg'otadi.

Xulosa va takliflar

Turizmni rivojlantirish ta'lim darajasining oshishi, xalqaro standartlar va turistlarning didlariga mos keluvchi xizmatlar madaniyatining oshishiga olib keladi. Turizmni barqaror rivojlantirish dasturini amalga oshirish natijasida mikro darajada iqtisodiy samaraga erishiladi. Turizmni rivojlanish darajasi bitta xorijiy [turistdan olinadigan tushum](#), ko'rsatiladigan xizmatlar hajmi, rentabellik kabi bir qator ko'rsatkichlar bilan o'lchanadi. Turizm sohasidan olinadigan moddiy samara foyda va daromad bilan belgilanadi.

O'zbekistonda turizmning rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan omillar quyidagilardan iborat:

- mehmonxona va transport xizmati ko'rsatish darajasining, turistlarning ovqatlanishi va dam olishi tizimining jahon standartlari darajasiga mos kelmasligi;
- xizmat ko'rsatish darajasi ancha past bo'lgani holda ularning narxini oshirib yuborish;
- milliy marketing axborot tizimi va reklamaning har xil shakllari, turlari yo'qligi;
- ko'plab turistik firmalar xodimlari malakasining bugungi kun talablariga javob bermasligi va bu firmalarning asosan xorijiy turizmga mo'ljal olishi.

Iqtisodiy munosabatlarning transformatsiyalashuvi sharoitlarida turizmni rivojlantirishni boshqarish samaradorligini oshirishning muhim omili xo'jalik yuritishning yangi shakllarini izlash hisoblanadi. Mamlakatimizdagi turistik xizmatlar bozorida hozirgi vaqtda asosan an'anaviy shakllar faoliyat ko'rsatmoqda. Agar yo'llanmalarining narxi doimiy oshib boradigan bo'lsa, dam oluvchilar soni ham tegishli kamayib boradi. Yuqorida aytilganlardan shu narsa kelib chiqadiki, hozirgi sharoitlarda O'zbekistonda eng dolzarb muammolardan biri turistik sohani qayta tashkil qilish, uning rentabelligini, birinchi navbatda, yuqori texnologiyali komplekslar va tegishli infrastrukturaga ega turistik markazlarni tashkil qilish evaziga oshirish hisoblanadi. Ichki turizmni rivojlantirish, yoshlar, aholining kam ta'minlangan qatlamlari, urush va mehnat veteranlari o'rtasida turistik-ekskursiya faoliyatini yaxshilash, taqdim etiladigan ijtimoiy qatlamlarning sifatini oshirish masalalari ham hal qilinishini kutmoqda.

Mamlakatimizda turizmni rivojlantirishda ko'plab omillar muhim rol o'ynaydi. Turizmni rivojlantirishga ta'sir qiluvchi asosiy omillar mavjud bo'lib, ularning ijobiy tomonlaridan keng foydalanish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- investitsiyalarni jalb qilish va turizm sohasi yaxshi rivojlangan davlatlar bilan o'zaro hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish orqali iqtisodiy omil imkoniyatlaridan samarali foydalanish;

- xorijiy turistik tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari asosida turistik korxonalarini tashkil qilib, turizm turlarini amalga oshirish asnosida bo'sh ish o'rinlarini yaratish;
- vizasiz kirish va chiqish tizimini mukammallashtirish orqali siyosiy omillar ta'sirini o'rganib borish;
- ekologiya va atrof-muhitga zarar yetkazmagan holda ekoturizmni amalga oshirish va mavjud resurslardan oqilona foydalanish;
- turizmni rivojlantirishda xorij mamlakatlari tajribalaridan unumli foydalanib, mamlakatimiz turizm taraqqiyotida keng qo'llash.

Адабиётлар/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. // <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
2. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 18-iyuldagi "Turizm to'g'risida"gi O'RQ-549-son qonuni. 3-modda. // <https://lex.uz/docs/-4428097>
3. Pencarelli T. The digital revolution in the travel and tourism industry. // Information Technology & Tourism, 22 (3), (2020). - pp. 455-476.
4. Lorde T., Francis B., Drakes L. Tourism services exports and economic growth in Barbados. // The International Trade Journal, 25 (2), (2011). - pp. 205-232.
5. Романова М.М. Формирование индустрии гостеприимства как механизм стратегического развития региона: дисс. ... канд. экон. наук. - М., 2006. - 172 с.
6. Дышловой И.Н. Факторы влияния и тенденция развития внутреннего туризма в России. // Научный журнал Вестник ассоциации вузов туризма и сервиса. Том 16, 2022, №2. - С.27-28. <https://cyberleninka.ru/article/n/factory-vliyaniya-i-tendentsiya-razvitiya-vnutrennego-turizma-v-rossii>
7. Макаренко С.Н., Саак А.Э. История туризма. Факторы развития туризма. Электронный ресурс. <https://tourlib.net/>
8. Колесников А.М. Анализ факторов, влияющих на развитие рынка туристских услуг. // Экономический вектор, №3 (10), 2017. - С.36-37. <https://cyberleninka.ru/article/n/analiz-faktorov-vliyayuschih-na-razvitie-rynka-turistskih-uslug>
9. Abdulqosimov X. O'zbekistonda turizmni rivojlantirish muammolari va istiqbollari. Magistrlik dissertatsiyasi. - T.: TDIU, 2005.
10. Tuxliyev I.S., Qudratov O'.H., Pardayev M.Q. Turizmni rejalashtirish. Darslik. - T.: Iqtisodmoliya, 2010. - 264 b.
11. Mamatqulov X.M. Turizm infratuzilmasi. O'quv qo'llanma. - T.: O'zbekiston faylafuslar jamiyati, 2011. - 335 b.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 5/8 (3) – 2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).